**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
https://science.nuu.uz/
Social sciences

**UDK: 94(575)**

***Utkir ABDULLAYEV,***
*Urganch davlat universiteti professori*

*Urganch davlat universiteti professori Q.Sobirov taqrizi asosida*

## ETHNIC PROCESSES PAST IN THE CONDITIONS OF PALEOGEOGRAPHY AND PALEOECOLOGY OF THE TERRITORY OF UZBEKISTAN IN THE MESOLITH PERIOD

Annotation

In this article is analyzed the process of changes that were reflected in the past socio-economic and ethno-cultural relations in the Mesolithic society in the historical and geographical territory of Uzbekistan, located in the center of the Central Asian region.

**Key words:** A.V. Vinogradov, E.D. Mamedov, U.I. Islamov, V.N. Timofeev, A. Anarbaev, B. Matbabaev, N. Egamberdieva, N. Kholmatov, B. Eshov, A.A. Adilov, E.B. Bizhanov, Central Asia, Uzbekistan, Mesolithic, Tatis, Selengur, Chashma, Bekobod, Sazagan, Burli-3.

## O‘ZBEKISTON HUDUDI MEZOLIT DAVRI PALEOGEOGRAFIYA VA PALEOEKOLOGIYASI SHAROITIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR SAHIFASI

Annotatsiya

Maqolada O‘rta Osiyo mintaqasi markazida joylashgan O‘zbekiston tarixiy-geografik hududida mezolit davri jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarda aks etgan o‘zgarishlar jarayoni tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** A.V. Vinogradov, E.D. Mamedov, U.I. Islomov, V.N. Timofeev, A. Anarboev, B. Matbaboev, N. Egamberdiyeva, N. Xolmatov, B. Eshov, A.A. Odilov, E.B. Bijanov, O‘rta Osiyo, O‘zbekiston, Mezolit, Tatis, Selengur, Chashma, Bekobod, Sazagan, Burli-3.

## ЭТНИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ, ПРОШЕДШИЕ В УСЛОВИЯХ ПАЛЕОГРАФИИ И ПАЛЕОЭКОЛОГИИ ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД МЕЗОЛИТА

Аннотация

В данной статье анализируется процесс изменений, которые отразились на прошлых социально-экономических и этнокультурных отношениях в мезолитическом обществе на историко-географической территории Узбекистана, расположенной в центре Среднеазиатского региона.

**Ключевые слова:** А.В. Виноградов, Е.Д. Мамедов, У.И. Исламов, В.Н. Тимофеев, А. Анарбоев, Б. Матбабоев, Н. Эгамбердиева, Н. Холматов, Б. Эшов, А.А. Одилов, Е.Б. Бижанов, Средная Азия, Узбекистан, Мезолит, Татис, Селенгур, Чашма, Бекабад, Сазаган, Бурли-3.

**Kirish.** O‘rta Osiyo yer yuzasi tuzilishi geologik tariqqiyoti davrida ikki tog‘li va tekislik qismdan iborat bo‘lgan. Mazkur mintaqa markaziy qismida joylashgan vatanimiz hududi yuzasi rang-barang tekislik sernam va serunum bo‘lib, ajdodlarimizning dehqonchilik madaniyatini olib borish imkoniyatiga sharoit yaratgan [1]. Markaziy Osiyo tabiiy-geografik hududlarida ashel davri ilk bosqichida etnik munosabatlarni olib borgan ovchi-termachilar singari O‘zbekistonning muayyan hududlarda o‘zlashtirgan ajdodlarimiz, tog‘larni tabiiy g‘orlari va ular tizmalaridagi buloqlar, daraxt kavaklari hamda suv havzalari sohil etagiga ulangan tekisliklar sathida sun’iy turar-joylarida istiqomat qilib, tevarak-atroflarida mavjud bo‘lgan tabiiy manbalardan unumli foydalanib etnik munosabatlarni olib borganlar. Ta’kidlash lozim bo‘ladiki, ashel davri ovchilari vakillari bosqichma-bosqich kasbi-korlarini olib borish jarayonida so‘nggi tosh davriga kelganda aholi soni o‘sishi, mehnat qurollari etishmasligi, tog‘-kon ashyosi zahirasi kamayib borishi hamda oziq-ovqat muammosi ta’minotini hal qilish, texnologik ixtirolarni kashf qilib, yangi hududlarda kundalik mashg‘ulotlarini olib borish asosiy vazifaga aylanishini tarix taqozo etgan. Mezolit davri (12-7-ming yilliklar)da sodir bo‘lgan tub o‘zgarishlar O‘zbekiston tarixi inson evolyutsiyasi va old tarixi fanida muhim bosqich sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mezolit davrida tabiiy-iqlim harorati ko‘tarilishi munosabati bilan vatanimiz hududini pleystotsen muzligining 500 ming yillikdan (to‘rtlamchi davrni mindel bosqichida) tog‘li va tekislikni qamrab olgan Buyuk muzligining shimoliy hudud sari regressiyasi munosabati bilan so‘nggi tosh davri jamiyati paleogeografiyasi va paleoekologiyasida yuz bergan tub o‘zgarishlari ajralib turadi. Tog‘li va tekisliklarda qadimgi tosh davri ashel, o‘rta va so‘nggi bosqichlari turar-joylarida istqomat qilgan ovchi-termachilar vorislari mavjud o‘zgarishlardan kelib chiqib, kundalik kasbi-korlarini jadal rivojlantirish imkoniyatlari vujudga kelgan. Mezolit davrida vatanimiz hududida faoliyatini boshlagan ibtidoiy ovchi-termachilar hududiy jihatidan shakllangan tarixiy-madaniy xo‘jalik tiplar joylashishi, paleoiqlim va paleoekologiyasida vujudga kelgan xususiyatlar mohiyatini e’tiborga olib, ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi tog‘ hududlarini qoplagan muzliklarning holati saqlanib qolgan. Ikkinchisi yer osti tebranishlari natijasi bo‘lgan Ustyurt platosi, Janubiy Orolbo‘yi, Quyi Zarafshon vodiysi va Qizilqum sernam va serunum tekisliklarini geografik holatini namoyon qilgan suv havzalari sohili etaklari atroflari flora va faunaga serob bo‘lib, aholi kelib joylashib, noma’lum geografik hududlarga moslashib, tabiiy manbalardan unumli foydalanib kasbi-korlari sohasida amalga oshirgan texnologik ixtiro qilgan

o‘zgarishlari mehnat qurollari tarkibidagi yo‘nalishlaridan kundalik faoliyatlarini faol rivojlantirish imkoniyatini bergan.

Toshkent vodiysida ashel davri quyi bosqichida Qizilolmasoy sohiliga ulangan tekislikda faoliyat olib bogan Ko‘lbuloq bulog‘i sohiliga ulangan tekislik sathida mazkur atama manzilgohida umrguzaronlik qilgan ovchi-termachilar moslashgan geografik muhit, qulay iqlim sharoit va ekologiya zahirasidan unumli foydalanib, kundalik mashg‘ulotlarini bosqichma-bosqich tarzda olib borishi barobarida etnik munosabatlarni olib borganlar. Ko‘lbuloqlik ovchi-termachilar avlodlari hayot va ijod uyg‘unligi natijasida erishgan tajribalari bilan jamiyat taraqqiyotini yangi tarixiy o‘rta tosh davriga qadam qo‘yganlar. O‘rta tosh davrida Ko‘lbuloqlik ovchilar vujudga kelgan muammolar echimini topish asosiy vazifalardan biri bo‘lgan. Shu ma’noda Obirahmat va Xo‘jakent manzilgohlari ovchilari migratsion siyosatni moslashgan geografik hudud doirasida chiqib, qo‘shni hududlarni o‘zlashtirib, hayotiy amaliy bilimlarni davom ettirishni maqsad qilib olganlar. Chunonchi, manzilgoh joylashish hajmi aholi son miqdoriga mos kelmasligi, mehnat qurollari cheklangligi, tog‘-kon ashyosi zahirasi kamayishi, tevarak atroflari flora va faunadagi ekologik vaziyat keskin holati natijasida vujudga kelgan oziq-ovqat muammomlarni nazarga olgan ovchilarni bir guruh vakillari so‘nggi tosh davrida tabiiy manbalarga serob bo‘lgan qo‘shni hududlar sari migratsion siyosatni olib borishini hayot taqozo etgan. A.P.Okladnikov ma’lumotiga ko‘ra, Obirahmat va Xo‘jandlik ovchi-termachilari vorislari qo‘shni tabiiy-iqtisodiy hududlarga ko‘chishni ikki yo‘nalishda olib borganlar: birinchi yo‘nalish miloddan avvalgi 8-7 ming yilliklarga kelganda Xo‘jakendlik ovchilarni ko‘chish yo‘li Toshkent shahri atroflaridagi Bo‘zsuv-1, U1 hamda Qoraqamish atroflari tekisligidagi manzilgohlarga asos solib, kundalik kasbi-korlarini davom ettirib, noma’lum hududda etnik munosabatlar geografiyasini kengaytirganlar. Ikkinchi yo‘nalish Obirahmatlik ovchilar esa, bir guruh vakillari Ohangaron vodiysi Chotqol tog‘ tizmasi atroflariga, ikkinchi guruh a’zolari esa Chirchiq daryosi sohili etaklari atroflariga kelib joylashganlar [10]. Shu tariqa, ovchilarning olib borgan migratsiyasi munosabati bilan aloqa yo‘llariga asos solingan, bu esa o‘z navbatida qon-qarindoshlik aloqalari va iqtisodiy-madaniy munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan. Toshkent vodiysiga geologik jihatidan ulanib ketgan Farg‘ona vodiysi yer yuzasi tuzilishi jihatidan farqlanish holati to‘rt tomonini o‘rab olgan osmono‘par tog‘lar geografik holati ovchi-termachilarning joylashishi, olib borgan etnik munosabatlarda o‘z ma’nosini topgan. Shu ma’noda Selengur g‘or-makoni (uzunligi 120 m, eni 34 m, balandligi 25 m) Farg‘ona shahridan janubi-g‘arbida joylashgan. Manzilgohda olib borilga qazishma ishlari natijasida uning ichki qatlamida 5 ta madaniy qatlam mavjud bo‘lgan. Moddiy ashyolarning ilmiy ahamiyati ikkinchi qatlamdan jasadning bosh suyagi engak qismi bir bo‘lagi, to‘rtta tish qoldig‘i, uchinchi qatlamdan esa, yelka suyagi bir qismi va 10 ta tish qoldig‘i topilishidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Selengurlik ovchi-termachilarni kundalik faoliyatlarini olib borishiga manzilda aholi miqdori oshgan bo‘lsa ham, ularni kundalik faoliyatlarini olib borishiga geografik o‘rni monelik qilmagan. So‘x daryosi tevarak- atroflarini o‘zlashtirib, kasbi-korini belgilab olgan selengurlik ovchilar amaliy kasbi-korini rivojlantirishida So‘x daryosi Obishir-1,V manzilgohi etnik makon sifatida xizmat qilgan. Obishirlik ovchi va termachilar yangi geografik sharoitida tog‘-kon sanoati ashyosidan, o‘simlik va hayvonot dunyosidan unumli foydalanib, etnik munosabatlarni olib borish jarayonida aholi soni oshganligi munosabati bilan so‘nggi tosh davrida tog‘ etaklari tog‘lardan oqib tushgan suvlar bir-biriga ulanib ketgan maydonlarda ko‘psonli soylar etaklariga kelib joylashib, mavjud bo‘lgan manbalardan foydalanib, kasbi-korlari tarkibini xilma-xil tarzda olib borganlar. Tog‘li hududlarda tabiiy manbalar zaxirasi, qulay ekologiya zaxirasi mavjudligi asosida so‘nggi tosh davrida amaliy mashg‘ulotlarini olib borganlar [6]. Mezolit davriga kelganda Obishir-1,5 manzilgohlari ovchilari aholi zichligi o‘sishi, tog‘-kon sanoati xom-ashyosi zahirasi qisqarishi, oziq-ovqat muammosi munosabati bilan qo‘shni hududlarga ko‘chish yo‘nalishi Janubiy va Markaziy Farg‘ona pasttekisligi bo‘lgan [5].

**Tahlil va natijalar.** Janubiy va Markaziy Farg‘ona tekisligi geografik holatini Ittakkal’a, Sho‘rko‘l, Achchiqko‘l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Bosqim kabi manzilgohlar mezolit davri ovchilari texnologik sohalarda qilingan ixtirolarga asoslanib, turli vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan xilma-xil mehnat qurollarini qo‘llab, yangi geografik muxitda davom ettirganlar. Bu o‘z navbatida mezolit davri urug‘ jamoalari vakillari ixtiro qilgan aloqa yo‘li, vatanida sodiq qolgan a’zolari bilan qon-qarindoshlik aloqalarini olib borish imkoniyati vujudga kelgan. Mazkur aholi manzilgohlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan moddiy ashyolar ona urug‘i jamoalari mazkur davrda zich joylashganligidan dalolat beradi [3].

E.B. Bijanov tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, Kaspiybo‘yi sharqiy sohili etagiga ulanib ketgan Ustyurt platosi tekisligida Shaxpaxta havzasi janubi-sharqiy hududi geografik holati va etnik munosabatlarni namoyon qilgan Jarinquduq, Aydobol 16, 25, 6, 9, 21, 22, 20, 35, Churuk va Jarinquduq-1 manzilgohlarida istiqomat qilgan ovchi-termachilar soni o‘sishi oshgan bo‘lsa ham, tabiiy manbalar va ekologik vaziyat barqaror bo‘lganligi bois, kundalik mashg‘ulotlari va etnik munosabatlarni geografik kenglik doirasida davom ettirganlar [2]. E.A. Vinogradova xulosasiga ko‘ra, Burli-3 manzilgohi ovchilari mezolit davrida tabiiy resurslar zahirasi serobligi munosabati bilan cheklangan geografik hududda etnik munosabatlarini davom ettirganlar [11]. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari (S.P.Tolstov, A.V. Vinogradov) asarlarida mezolit va neolit davri urug‘ jamoalari uyushmalari manzilgohlari to‘g‘risida ma’lumotlar kuzatilmaydi. Aksincha, Farg‘ona vodiysi, Ustyurt platosi va Sulton Uvays tog‘i hududlaridagi so‘nggi tosh davri ovchilari tabiiy manbalar va qulay ekologik sharoitda xo‘jalik an’analarini olib borishida erishgan yutuqlari yangi jamiyatni rivojlantirishga asos bo‘lgan. Oqchadaryo havzasi janubi-sharqiy hudud geologik asosi yaxlit, ammo yer yuzasi tuzilishi jihatidan Zarafshon vodiysi farqlanish xususiyatiga ega.

Oqchadaryo havzasi geografik kengligi Sulton Uvays tog‘i janubiy va shimoliy qismlarga ajratgan, Quyi Zarafshon vodiysi geografik kengligida chegara holati kuzatilmaydi. Qizilqum pasttekisligida mezolit davriga mansub ovchi-termachilar tabiiy manbalardan unumli foydalanib, kundalik faoliyatlarini davom ettirganlar. Arxeologik adabiyotlarda Buxoro viloyati hamda Samarqand viloyati tog‘li hududlarida istiqomat qilgan ovchi-termachilarni so‘nggi tosh va mezolit davrlarida olib borgan amaliy mashg‘ulotlari to‘g‘risida ma’lumotlar qayd qilinmaydi. Nazarimizcha, Nurota tog‘ tizmasida faoliyat olib borgan ovchi-termachilar (Vaush, Ijond manzilgohlari) Uchtut, Kavobi ustaxonalarida unumli foydalanib, mehnat qurollarini modernizaцiya qilib, yangi mehnat qurollarni xo‘jalikda qo‘llab, tabiiy manbalar serobligi munosabati bilan etnik munosabatlarni so‘nggi tosh, mezolit davrida olib borish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Samarqand viloyati tog‘li hududlarida o‘rta tosh davri ovchilarining avlodlari (Qo‘tirbuloq, Omonqo‘ton, Zirabuloq, Go‘rdara) manzilgohlarida istiqomat qilgan ovchi-termachilarni so‘nggi va mezolit tarixiy davrlarida olib borgan faoliyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar tadqiqotchilar asarlarida kuzatilmaydi.

Sharqiy va G‘arbiy Qizilqumni Chorbakti suv havzalari sohili etagi atroflarida (12-8 ming yilliklarga oid) Chorbakti 11, 23, 27, 41 manzilgohlarida faoliyat olib borib, Qizilqum sahrosi sharoitida etnik munosabatlarni olib

borishga muyassar bo‘lganlar [12]. Qizilqum tekisligi va Samarqand shahrida Komsomol ko‘li sohili etagidagi manzilgohda olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar so‘nggi tosh davriga oid bo‘lgan. Manzilgoh ovchilari Qizilqumga kelib Sazag‘on-1 manzilgohiga asos solgan. Samarqand makoni ovchi-termachilar vakillari ajdodlari vatanidan voz kechib, Qizilqum pasttekisligida ustunlik qilgan “Lavlakon namligi”dan unumli foydalanib, kasbi-korlariga yangi sohalarni jalb qilib, noma’lum geografik hududga moslashib, etnik jarayonlarni olib borganlar [7]. O‘zbekiston hududiga geologik natijalar asosida ulanib ketgan Janubiy Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Janubiy Tojikiston va Turkmaniston hududlarida so‘nggi tosh davri ovchilari migraцion siyosatni olib borishda chekkada qolgan emas. Janubiy va Markaziy Qozog‘iston hududlarida Achchisoy, Sari-Arka, Betpak-7, Angrensor-2 manzilgohlari mezolit davriga oid bo‘lgan. Qirg‘iston tog‘li hududidagi Tossor, Georgiy Bugor va tekislikda Xo‘jag‘ayr manzilgohlari ovchi-termachilari mezolit davri etnik munosabatlarini davom ettirganlar [8]. Fikrimizcha, ashel davriga mansub On-Ancha manzilgohi ovchilari avlodlari yangi geografik sharoitda xo‘jalik an’analarini olib borganlar. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Janubiy Tojikistonda ilk tosh davriga oid bo‘lgan Qoratau-1 makonida o‘rnashgan ovchi-termachilar bosqichma-bosqich kundalik mashg‘ulotlari olib borish barobarida etnik munosabatlarni keng yo‘lga qo‘yganlar [9].

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tarixiy ma’lumotlar mazmuni quyidagicha yakuniy xulosaga kelishni taqozo etadi:

- Mezolit davri jamiyati manzarasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari yer osti tektonik harakatlari tog‘, tog‘oldi hamda tekislik hududlarini namoyon qilib, uning relyefida yuz bergan tub o‘zgarishlar buyuk muzlikning chekinishi natijasida hosil bo‘lgan tekislik sernam va serunum bo‘lib, odamzot tomonidan bosqichma-bosqich o‘zlashtirilib, hayotiy tajribasini yanada rivojlantirishga xizmat qilgan.
- Toshkent vodiysida Obirahmat, Xo‘jakent manzilgohlarida istiqomat qilgan ovchi-termachilarni vorislari (Toshkent shahri tevarak-atroflari, Chotqol tog‘ tizmasi atroflari etnik munosabatlar maydoniga aylantirgan.
- Ustyurt platosi, Quyi Zarafshon vodiysi, Qizilqum va Surxon hududlarida so‘nggi tosh davri ovchilari avlodlari mezolit davrida ko‘nikkan hududlarda etnik munosabatlarni davom ettirganlar.
- Mazkur davrda mehnat qurollari texnologiyasida odamzot tomonidan ixtirolar amalga oshirildi, uy xo‘jaligida xonaki chorvachilik va dehqonchilikni ilk ildizlari vujudga kelgan, engil tuyoqli hayvonlarni qo‘lga o‘rgatilishi munosabati bilan ular faoliyatida yangi xo‘jalik yo‘nalishlar olib borish yo‘lga qo‘yilgan.
- Mezolit davri ovchi-termachilari kundalik faoliyatlarida mehnat qurollarida amalga oshirgan texnologik jarayonlar natijalari jamiyat taraqqiyotini bir qadam oldinga tashlanishiga imkon yaratgan, bu esa o‘z navbatida keyingi tarixiy davr jamiyatini rivojlanishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

**ADABIYOTLAR**


1. Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 2002. – Б. 20.
2. Бижанов Е.Б. Открытие памятники мезолита на Юге-Восточном Устюрте // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – Нукус, 1982. Вып-3. – С. 62.
3. Эгамбердиева Н. Археология (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2011. – Б. 42.
4. Исломов У. Фарғонанинг ибтдоий тарихи // Анорбаев А., Исломов У., Матбобоев Б.Х.. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 38.
5. Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Ташкент: Фан, 1986. – 304 с.; Исломов У. Фарғонанинг ибтидоий тарихи // Анорбоев А., Исломов У., Батбобоев Б.. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 34.
6. Жўрақулов М.Ж. Самарқанд шаҳрининг ибтидоий маданият тарихи саҳифаси. // Археология Узбекистана. – Самарканд, 2011. №1(2). – Б.15.
7. Кабиров Ж, Сагдуллаев А. Ўрта Осиё Археологияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1990. – Б. 57-69.
8. Лазаренко А.А, Ранов В.А. Новая палеолитическая стоянка Каратау-1 в Южном Таджикистане // Успехи среднеазиатской археологии. – М – Л, Наука, 1975, Вып-3. – С. 69-71.
9. Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическая время // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы – М. – Л., Наука, 1966. – С. 59-68.
10. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и средневековье. – М.: Наука, 1998. – С.74-78.
11. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана. – Ташкент: Фан, 2007. – С. 32-35.

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
https://science.nuu.uz/
Social sciences

**UDK:34.3.197(584.4)**

***Faxriya ABDURASULOVA,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti*
*E-mail: faxriyabahtiyorovna@gmail.com*

*T.f.n., dots. A.B.Xoliqulov taqrizi asosida*

## THE ROLE OF THE SCHOLARS OF BUKHARA EMIRATE IN THE SPIRITUAL LIFE

Annotation

Bukhara is one of the well-known and famous cities of the Islamic world, where there were a large number of Muslim schools, educational institutions, and institutions. Known as one of the most prestigious cities of the Muslim world, this center of knowledge was visited by people who were hungry for knowledge from the eastern countries, took lessons from scientists and scholars, studied secular and Islamic sciences, and enjoyed the beauty of knowledge. The conditions and cultural environment created during the reign of certain dynasties, the peaceful and peaceful way of life, the patronage of some rulers who are interested in science, the lively literary life in the palace of the kings, the free creation of poetry and science did not have a positive effect on the development of their activities.

**Key words:** Madrasa, akhund, religious, secular, education, sheikhs, scholars, mudarris, a scholarship.

## РОЛЬ УЧЕНЫХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация

Бухара – один из известных и знаменитых городов исламского мира, где находилось большое количество мусульманских школ, учебных заведений, учреждений. Известный как один из самых престижных городов мусульманского мира, этот центр знаний посещали жаждущие знаний люди из восточных стран, брали уроки у ученых и ученых, изучали светские и исламские науки, наслаждались красотой знаний. Условия и культурная среда, созданные в период правления некоторых династий, миролюбивый и миролюбивый образ жизни, покровительство некоторых правителей, интересующихся наукой, оживленная литературная жизнь во дворце королей, свободное творчество поэзии и науки не оказали положительного влияния на развитие их деятельности.

**Ключевые слова:** медресе, ахунд, шариат, религиозное, светское, образование, шейхи, ученые, мударри, ученость.

## BUXORO AMIRLIGI ULAMOLARINING MA’NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Buxoro islom olamining ma’lum va mashhur shaharlaridan biri bo‘lib, u yerda musulmon maktablari-madrasalar, o‘quv yurtlari, muassasalar soni juda ko‘p edi. Musulmon dunyosining obro‘li shaharlaridan biri sifatida tanilgan mazkur ilm markaziga sharq mamlakatlaridan ilm olishga chanqoq kishilar kelib, olim-u ulamolardan saboq olishar, dunyoviy va islomiy fanlarni o‘rganishar, ilm ziyosidan bahramand bo‘lishar edi. Muayyan sulolalar hukmronligi davrida yaratilgan shart sharoit va madaniy muhit, tinch va osuda hayot tarzi, ayrim ilmga qiziquvchan hukmdorlarning homiylik faoliyati, podsholar saroyidagi jo‘shqin adabiy hayot, she’riyat ilm ahliga erkin ijod qilish ularning faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

**Kalit so‘zlar:** Madrasa, oxund, shariat, diniy, dunyoviy, ta’lim, shayxlar, ulamolar, mudarris, stipendiya.

**Kirish.** Buxoro ilm-ma’rifat tarqatish bilan bir qatorda mamlakatning siyosiy boshqaruvida ham muhum o‘rin egallar edi. Ko‘hna Buxoro o‘zining ko‘p sonli madrasalari bilan nom taratgan. U turli yerlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shadar disoblangan. Bu an’ana deyingi asrlarda dam davom etgan. Shu sababli aksariyat mualliflar Buxoro haqida so‘z ketganda avvalo uning shu jixati bilan ta’riflaganlar. E.K. Meyendorf Buxoroning musulmon sivilizatsiyasining markazi sifatidagi rolini alohida ta’kidlaydi: “Keyin Sharqda mashhur va hurmatga sazovor bo‘lgan ko‘p sonli maktablari, o‘z devorlariga dafn etilgan ilmli mulla va avliyolar tufayli u musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan”[1]. 1833-yilda Buxoro amirligida bo‘lgan P.I.Demezon maktablarga shunday ta’rif beradi: “Maktablarb(maktab) ancha ko‘p. Ular har bir masjidda mavjud. Ularda bolalar Qur'onning birinchi surasini va namoz vaqtida eng ko‘p takrorlanadigan oxirgi uch-to‘rt surasini o‘qish, yozish va aytishni o‘rganadilar, chunki ular boshqalarga qaraganda ancha qisqaroqdir”[2] deb ta’riflagan.

**- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Buxoro ilm-ma’rifat tarqatish bilan bir qatorda mamlakatning siyosiy boshqaruvida ham muhum o‘rin egallar edi Shaharda tasvvuf pirlari, shayxlari faoliyat yurgizar va orqalaridan ergashuvchi muridlari bilan birgalikda komillikka erishish, allohga do‘st bo‘lish va yaqinlashishning so‘fiylik usullari orqali xalqni islom shariat ahkomlaridan xabardor qilib turar edilar. “ Trix-i jahongushoy” kitobida[3] shunday yozilgan: “ Buxoro qubbat ul-islomning sharq o‘lkalaridan biri hisoblanadi. Madinat ul-islom martabasidadir. Unga tutash yerlar fuqaro va Ulamo nuri ravshanligi ila orastadur[4]. Madrasada mantiq, ilohiyot, shariat huquqi (fiqh), Qur’on tafsiri va Muhammad payg‘ambar urf-odatlarini o‘rgatish (hadis) kabi fanlar o‘rganilgan. Buxoro madrasalarida diniy ilmlardan tashqari nahv va sarf (morfologiya va garmmatika), adab (adabiyot), xatoba (notiqlik), riyoziyot (matematika) falsafa kabi fanlar o‘qitilgan. Madrasada umumta’lim fanlaridan astronomiya, geometriya, tibbiyot, kimyo, tarix, geografiya, adabiyot, “aruz” she’riy o‘lchami, me’morchilik asoslari, xattotlik, musiqa, odob-axloq, notiqlik kabi fanlarni o‘rgangan. Madrasa talabalari Imom al Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Burxonitdin Marg‘inoniy asarlarini – jami 137 ta darslik va o‘quv qo‘llanmalarini bilishlari shart edi [5]. O‘quv dargohlari faoliyati vaqf, arznoma, mutavallining hisob-kitob daftari, shikoyatlar, madrasalar ro‘yxati, tibbiy tekshiruv [6], yorliqlar

va boshqa hujjatlar vositasida faoliyat ko‘rsatgan. Davlat tomonidan maktablar qurish, ularni ta’mirlash va ta’lim-tarbiya ishlariga mablag‘ ajratilmagan. An'anaviy maktablar - maktablar xususiy shaxslar tomonidan yoki shahar va qishloqlarda yashovchilar tomonidan qurilgan va ta'minlangan. Shariatga ko‘ra, diniy fanlarni o‘qitish uchun pul olish mumkin emas edi. Shuning uchun muallimlar, qoida tariqasida, masjidda ma'lum bir lavozimda (xatib, imom, muazzin lavozimlarida) ishlaganlar, turli diniy tadbirlar paytida namoz o‘qiganlar, diniy bo‘lmagan fanlardan - xattotlik, arifmetikadan va maosh va mukofotlar hisobiga dars berganlar. Buning uchun olgan, ular o‘z oilalarini boqishgan. Buxoro ta’lim tizimi tarkibi o‘zaro farqlanadigan bir necha turdagi o‘quv dargohlaridan topgan. Buni P.I. Demezonning quyidagi yozib qoldirgan ma’lumotlari ham tasdiqlaydi: “Buxoro madrasalari butun Turkistonda juda mashhur. Bu yerga Xiva, Qo‘qon, Hisor, hatto Samarqanddan, ko‘plab tatar viloyatlaridan talabalar kelishadi. Madrasalarda darslar bomdod namozi va nonushtadan ketin boshlangan. U har bir madrasaning o‘zida tartibga solingan kun tartibi bo‘yicha davom etgan. Ta’lim muddati O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida: “Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab 7-12 yil davom etgan”[8],-deyilgan. Abdusattor Jumanazar tarixchi olimning gaplariga qaraganda Professor Anvar Qodirov va tarixchi olim Erkin Orifjonov: “ O‘qish muddati belgilab qo‘yilgan emas. U 10-12 yildan 18-20 yilgacha bo‘lishi mumkin edi, ba’zilari madrasada umrbod qolib o‘qiganlar”[9] deb yozadi. O‘qitishning barcha bosqichlarida ko‘p vaqt islom dinining dogmatik asoslarini, Qur’oni karim, tafsir (Qur’onni tafsir qilish ilmi), hadislar, islom huquqi va axloq asoslari, islom tarixini o‘rganishga bag‘ishlandi, arab va fors (tojik) tillari.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Buxoroda ta’lim XVIII asrning birinchi yarmi XIX asrda ham o‘tmishdagi nufuzini saqlab qola olgan. Madrasada ta’lim ayniqsa amirlar Shohmurod va Haydar davrida rivojlangan. Ahmad Donish ta’kidlaganidek, Haydar davrida “Buxoroga yer yuzining turli burchaklaridan va barcha aholi punktlaridan odamlar o‘qish uchun kelardi. Shariat ilmlari va hukmlari shu qadar ravnaq topdiki, islom davrida avvalgi padoshalarning birortasi olimlari ilm-fanda bunchalik muvaffaqiyatga erisha olmadilar”[10] deydi. Buxoro amirlari amir Shohmurod (1785-1800) hamda amir Haydar (1800-1826) va amir yillarda ushbu amirlar hukmronligi davrida ilmga e’tibor ko‘proq qaratilgan, diniy va dunyoviy bilimlar juda rivojlangan. Amir Shohmurod (1749-1800) amirlik hukmdori bo‘lguniga qadar bozorda yukkashlik qilgan, pichoqlarga qin yasab kun kechirganligi, qolaversa uning ilm-fanga qiziqishi nihoyatda balnd bo‘lgan edi. Yoshligida bir necha yillar Buxoroning eng obro‘li madrasalaridan biri Mir arab madrasasida bilim olgan. Shu bilan bir qatorda u tasavvuf ilmini ham o‘rganadi va so‘fiyona hayot tarzi uning odatiy hayotiga aylanadi. Buni Sadri Ziyo (1865-1932) ning bergan ma’lumotlari ham o‘z isbotini topgan: “Amir Shohmurod Mir arab madrasasining hujralaridan birida kun kechirar, riyozot chekib ilm olish bilan mashg‘ul bo‘lgan va aholi orasida “ Amir Jannatmakon” degan nom bilan tanilgan. Bu haqida Abu Tohirxojaning “ Samariya” asarida ham yozilishicha Shohmurod yoshligida bir necha yillar Mir arab madrasalarida tahsil olgan deyilgan. “Tuhfat az- zoirin” asarida esa uning o‘g‘li amir Haydar ham “ Amir Said” va “ Firdavsmakoniy” kabi nomlar bilan xalq orasida tanilgani haqida ma’lumotlar bor[11]. Ba’zi manbalarning guvohlik berishicha amir Haydarning “ Amir” yoki “ Oliy” nomli madrasalar qurdirgnligiga ham duch kelamiz. Amirlar Shohmurod va Haydar hatto madrasalarda mudarris domla bo‘lib faoliyat ham yuritganlar. Amir Shohmurod madrasalarda “Hidoya”, Bayzoviyning “Kitob usul ad-din” asaridan shu bilan birga Shotibiyning asarlari va unga yozilgan sharhlardan ta’lim bergan. Shohmurodning o‘g‘li Miriyning yozib qoldirishicha, Amir Shohmurod “ Shotibiya” va unga yozilgan har bir sharhlarni yoddan bilgan. Shu bilan bir qatorda qiroat, hadis, va fiqh ilmlarining ustasi bo‘lgan, u vaqtining asosiy qismini madrasalarda sarflab talabalarga ta’lim bergan, ko‘plab shogirdlar yetishtirib chiqargan. Qolaversa u soliqlardan tushgan daromad hisobidan talabalarga nafaqa (stipendiya) to‘lashbi qo‘llagan hukmdorlardan[14]. Madrasalarda ta’lim-tizimida bir qancha islohotlar bo‘ladi

**Tahlil va natijalar**. Ziyo istab keluvchi ilm ahli Buxoroga tashrif buyura boshlaydi. Buxorodagi eng mashhur madrasalardan hisoblangan Mir-i Arab madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Ko‘kaltosh madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Ulug‘bek madrasasi, Nodir Devon begi madrasasi, Chor Manor madrasasi va boshqalar hisoblangan. Tarixnavis Miriyning (1778-1829) “Mahozin at-taqvo” asarida Shohmurod taxtga o‘tirgunga qadar ham bir qancha ilm maskanlarini xaroba holatga kelib qolganligini va ular omborxona vazifalarini bajarayotganligini yozadi. Shohmurod madrasa talabalarini stipendiyalar bilan ta’minlab, ularni soliq tushumlari hisobidan to‘lardi[16] Ahmad Donish (1826-1897) va Sadri Ziyolar Amir Haydar davrida ilm olish maqsadida dunyoning boshqa mamlakatlaridan ham talabalar Buxoroga ta’lim olish istagida kelganliklarini, ilm-fan o‘z cho‘qqisiga chiqib olim-u fuzalolar bungacha bunchalik yutuqqa ega bo‘lmaganligini ta’kidlashadi[17]. Ingliz sayyohi A. Byorns esa Buxoro amirlik madrasalarida Erondan tashqari turli joylardan kelgan talabalarni ko‘rish mumkinligini, va ularning ta’lim olish muddati yeti yiki sakkiz yillik o‘quv kursini tamomlab, o‘z vatanlariga olgan bilimlari bilan qaytganligini yozib qoldirgan. Qozondan kelgan Abu Nasr Kursaviy (1776-1812), Bahouddin Marjoniy (1786-1856) va boshqalar nufuzli madrasalarda diniy ilm olganlar. Abu Nasr Kursaviyning akasi Abdulxoliq savdo-sotiq qilish maqsadida Buxoroga kelganda, mashhur shayxlardan Niyozqul Turkmaniy bilan tanishgan va uning yig‘ilishlarida qatnashgan. 1790-yilda Buxoroga ta`lim olish maqsadida kelgan ukasi Abu Nasr Kursaviyga shayx Niyozqul qo‘lida tahsil olishni tavsiya qilgan. Buxoro madrasasida to‘rt yil tahsil olgan Kursaviy o‘z yurtiga qaytib, imom-xatiblik va mudarrislik qilgan. Qozonlik yana bir tolibi ilm Bahounddin Marjoniy 1812-yilda Buxoroga kelib, nufuzli madrasalarda ta`lim olgan. Boshqa yurtlardan kelgan ayrim talabalar o‘qishni tamomlagach ham, amirlikda mudarris bo‘lib qolganliklari ham uchrab turgan. Misol uchun Muhammad Sharif ibn Mahammad Naqiy amir Shohmurod va Haydarlar hukmronligi yillarida yashab, Buxoro madrasalaridan birida tarix hamda, adabiyot tarixidan ta’lim berganliklari tarixdan ma’lum. O‘zi esa vaqti-vaqti bilan shoirlik qilgan. Abu Sharaf Muhammad Husayn ibn Abu Umar Bulg‘oriy esa o‘zi haqida shunday deydi” “ Faqir Bulg‘or madrasalaridan biri bo‘lgan Kargal shahridan 1231/1815-yilda Buxoroga kelib, hozirgi kunga qadar 1261/1845-shu yerda yashayapman”. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti huzuridagi Sharq qo‘lyozmalari markazida № 2640 raqami ostida salanayotgan kitobda u Amir Nasrullaxon 91826-1860) hukmronlik davrida saroyda xizmat qilib, adabiyot bilan shug‘ullangani hamda amirning o‘g‘liga turli boshqa fanlardan ta’lim berganligi to‘g‘risida ma’lumotlarga duch kelishimiz mumkin[18]. U nafqat madrasalar qurdiradi balki ulrning qayta rekonstruksiya qilinishiga ham alohida e’tibor beradi. Misol tariqasida Shayboniyxon va Xoja Ahror Valiy madrasalarni qayta ta’mirlashga buyruq beradi. Amir Shohmurodning o‘g‘li Amir Haydar (1778-1826) Buxoro arkida madrasa qurdirgan unda o‘zi ham “Sharhi Kofiya”, Sharhi Mishkot”, “Shamoili Nabaviy” va “Tafsiri Qozi Bayzoviy”[19] dan dars bergan.

Abdusattor Jumanazarov “Buxoro ta’lim tizimi” monografiyasida Buxorodagi 300 dan ortiq madrasa tarixini ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan[20]. XVII asrda

naqshbandiya tariqatining yangi qudratli to‘lqini paydo bo‘lib, bu yuksalish Xoja Muhammad Boqibilloh ad-Dehlaviy, Shayx Ahmad Sirhindiy, Xoja Muhammad Ma’sum, Xoja Muhammad Xabibulloh kabi yirik so‘fiy allomlar faoliyati bilan bog‘liqdir. Mavlono Qurbat 186-1948) 1868-yil Buxoro shahridgi Xoja Zomucha guzarida ulamo oilasida tavallud topgan. Uning otasi sadral ulamo (ulamolar raisi) Mavlono G‘iyosiddin bo‘lib, bu zot Buxoroning a’lami bo‘lib faoliyat olib borgan. Mir Amin Qurbat arab tili, shuningdek, diniy ilmlarni Domlo Abdushukurdan o‘rganadi. U zoti sharif ham 18 yasharliklarida Mir Arab madrasalarida taxsil oladi. Fiqh usuli, hadis, aqoid, kalom, hikmat, tasavvuf ilmlarini chuqur o‘zlashtirib o‘z zamonasining allomasi bo‘ladi, va tez orada andxo‘y madrasasida mudarrislik bo‘lib o‘z faoliyatini olib boradi [21]. Yana bir alloma Shayx Abdulqodir Karomatulloh 1909-yil Buxoro shahridagi Hammomi Kunjak guzarida tug‘ilgan. U zot ham Mir Arab madrasasida tahsil olganlar. Yoshlikdan o‘zbek, tojik va arab tillarida sherlar yozgan. Shayx Abdulqodirning taxalluslari Sabboqdir. 1931-yil hajga borib, haj arkonlarini ado etib bo‘lganlaridan so‘ng Makkadagi Savlatiya madrasasida bilim oladilar. Ushbu madras ani tamomlagach din va shariat ilmi ustozi bo‘ladilar. Shayx Abdulqodir Savlatiya madrasasida bir necha yil talabalarga bilim berib keladi. Ehtimol shuning uchun u “Sharif” nomiga sazovor bo‘lgandir” J. Kunits ham Buxoroni “arab-eron madaniyatining qal’asi”, Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi “Islomning markazi”, 250 masjid va madrasalar qad ko‘targan ilm maskani deya atagan[22].

**Xulosa va takliflar**. Buxoro amirligida ta’lim tizimining yuqori bosqichi bo‘lgan madrasalar shariat, ta’lim va boshqaruv tizimiga kadrlar tayyorlash, asoslarini o‘rganish, adabiyot, mantiq kabi fanlarni o‘rgatuvchi maskan sifatida nafaqat O‘rta Osiyoda, balki musulmon dunyosida yaxshi ma’lum edi. Buxoro amirligida talabalarga diniy bilimlar qatori dunyoviy bilimlarga katta e’tibor qaratilishi, ta’til va imtihon tartiblarining joriy etilganligi, o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish kabi omillar o‘sha davr uchun katta yangilik edi.

**ADABIYOTLAR**


1. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару.- М., 1975. – 181с.
2. Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И. Демезона и Виткевича И.В.). - М.: Наука.- 1983.- 143 с.
3. Вохидов Ш. Аминов Б.Тарихи Муллазода ( Бухоро мозорлари зикри) Тошкент 2009 Б-19.
4. Вохидов Ш. Аминов Б. Тарихи Муллазода ( Бухоро мозорлари зикри) Тошкент 2009 Б-19.
5. Саййид Мухаммад Насир б.Музаффара. Тахкикат-и Арк-и Бухара (Исследования о Бухарском Арке)./ Пер. с персидского, введение, комментарии и указатели Гуломова С.. –Ташкент, 2009. –С. 51-106.
6. ЎзР МДА. И-126.1-1996; 1-1994 каранг яна Жуманазар А. “ Бухоро таълим тизими тарихи” - Тошкент: Akademnashr, 2017. - 3 б.
7. ЎзРМДА. И-323.55-19. Фатҳуллоҳ қушбеги мадрасаси вақф ҳужжати; И-323. 49, Виби отун мадрасаси вақф ҳужжати; И-323. 51. Домулла Шер мадрасаси нақф ҳужжати. қаранг яна Жуманазар А.“Бухоро таълим тизими тарихи” - Тошкент: Akademnashr, 2017. – 63-b.
8. Узбекистан Миллий Энциклопедияси. V ж. - Тошкент: УзМЭ, 2003. - Б.377.
9. Кодиров А., Орифжонов Э. XX аср бошларида Бухоро мадрасаларида ўқитиш услуби. - Тошкент: Шарқ машъали, 1997. №1 - 2. - Б.5.
10. Ахмад Дониш. История мангитской династии. - Перевод, предисловие и примечание Наджафовой И.А. -Душанбе: Дониш, 1967.- 142 с..
11. Тураев Халим “Туҳфат азғзоирин” (“Подарок паломникам”) перевод с таджикского-персидского. Предисловие и комментарии Ташкент 2021.- С 10.
12. Мирзо Олим Махдум Ҳожи .Тарихи Туркистон – Тошкент:.Янги аср авлоди .2009 , –Б.591 .
13. Замонов Акбар “Ўрта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим ноъмалум саҳифалари” Тошкент: “BAYOZ”, 2020.- Б.145.
14. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков – .С.995 .
15. Маликов А.М. Культура Самарканда в конце XVIII - первой половине XIX в./Культурно-исторические процессы в Центральной Азии (древность и средневековье). -Алматы: Дайк-пресс, 2012. -С.290-304.
16. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.). -Алматы: Дайк – Пресс, 2004.- 516 с.
17. Ахмад Дониш .История мангитской династии – .Перевод ,предисловие и примечание И.А .Наджафовой – .Душанбе :Дониш – .1967,С ;.99.
18. Асророва Лобар Бухоро мадрасалари тарихидан Тошкент . 2016.- Б.8.
19. Замонов А. “Ўрта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим номаълум саҳифалари” Тошкент: 2020. Б.145.
20. Жуманазар А.“ Бухоро таълим тизими тарихи” - Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б. 3.
21. Sadriddin Salim Buxoriy “Buxoroning tabrruk ziyorotgohlari” Durdona nashriyoti” 2012 .271-bet.
22. Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт сабоғи. Монография – .Самарқанд:СамДУ нашри.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

TARIX
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:94

*Гулнор ДЖУМАЕВА,*
*К.п.н., доцент, Главный научный сотрудник Университета Инха в г. Ташкенте*
*E-mail:gulnor.dzhumaeva@mail.ru*

*По отзыву доктора исторических наук А. Ходжаева*

## СОСТОЯНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ НЫНЕШНЕГО АФГАНИСТАНА И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация
В статье анализируются нынешняя ситуация в Афганистане, негативные и оптимистические прогнозы развития событий, их последствия для соседних Афганистану стран и региона в целом. Автор полагает, что при поддержке международного и регионального сообщества и наличии сильной политической воли самой власти Талибан Афганистан имеет все шансы для становления на путь интеграционного развития.
**Ключевые слова:** Афганистан, Талибан, международное сообщество, Центральноазиатский регион, афганский кризис.

## HOZIRGI AFG‘ONISTONNING TRANSFORMATSIYA HOLATI VA UNING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya
Maqolada Afg‘onistondagi mavjud vaziyat, voqealar rivojining salbiy va optimistik prognozlari, ularning Afg‘onistonga qo‘shni davlatlar va butun mintaqa uchun oqibatlari tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, xalqaro va mintaqaviy hamjamiyat ko‘magi hamda “Tolibon” harakatining kuchli siyosiy irodasi bilan Afg‘onistonda integratson rivojlanish yo‘lidan borish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.
**Kalit so‘zlar:** Afg‘oniston, Tolibon, xalqaro hamjamiyat, Markaziy Osiyo mintaqasi, afg‘on inqirozi.

## THE STATE OF TRANSFORMATION OF THE CURRENT AFGHANISTAN AND ITS PROSPECTS

Annotation
The article analyzes the current situation in Afghanistan, negative and optimistic forecasts for the development of events, their consequences for the countries neighboring Afghanistan and the region as a whole. The author believes that with the support of the international and regional community and the strong political will of the Taliban itself, Afghanistan has every chance to take the path of integration development.
**Key words:** Afghanistan, Taliban, international community, Central Asian region, Afghan crisis.

**Введение.** Возвращение к власти Талибан в 2021 г. вызвало серьезное беспокойство во всех странах Центральноазиатского региона. Озабоченность их правительств, особенно государств, граничащих с Афганистаном, по поводу вызовов и угроз, исходящих из Афганистана, небеспочвенна. В недалеком прошлом пограничники этих стран фиксировали десятки столкновений с неизвестными бандами (в июле 2016 г. нападение на погранвойска в Марыйском вилаяте Туркменистана, в 2019 г. – на погранзаставу в Таджикистане и др.). Тревожность стран ЦА обусловлена вероятностью возобновления вооруженных столкновений или противостояния, в которые могут быть вовлечены как внешние силы, так и третьи государства. Затяжной афганский кризис, обусловленный непрекращающимся противоборством внутренних политических сил, постоянным вмешательством внешних акторов, ошибочные стратегии которых способствовали не решению афганской проблемы, а, наоборот, его продолжительности, постоянная непредсказуемость развития событий – все это актуализирует необходимость тщательного изучения афганского фактора, анализа основных усилий и мероприятий, осуществляемых международным и региональным сообществами, в том числе и сопредельными Афганистану странами, направленных на стабилизацию ситуации в Афганистане и обеспечение безопасности в государствах Центральноазиатского региона. Важно также выведение прогнозов и логических последствий политической трансформации в Афганистане с целью формирования и реализации адекватной сложившейся ситуации стратегии безопасности стран региона и дальнейшего взаимодействия с ним.

**Анализ литературы по теме.** Существует множество теоретиков-политологов, которые занимались изучением афганской проблемы. Среди них Барни Рубин, автор и соавтор многих книг и статей по вопросам политики и стратегии в Афганистане, наиболее известные из которых: "The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System" (1995) - книга, в которой Рубин рассматривает процесс формирования государства в Афганистане и его последующий распад; "The Search for Peace in Afghanistan: From Buffer State to Failed State" (1995) - статья, в которой анализируются причины гражданской войны в Афганистане и поиск пути к мирному урегулированию конфликта; "The Political Economy of War and Peace in Afghanistan" (2000) - книга, в которой авторский коллектив с участием Б.Рубина исследует экономические аспекты конфликта в Афганистане и его влияние на процессы мирного строительства; в книге "Afghanistan: Transition under Threat" (2008) рассматривается переходный процесс в Афганистане после падения режима талибов и оценивают угрозы, которые могут возникнуть на пути к мирному развитию страны и др.; Ахмад Рашид , автор книги "Талибан: Ислам, нефть и новая великая игра в Центральной Азии"; Питер Томсон, автор книги "Афганистан: Война, вмешательство и стратегия построения мира". Также проблемами Афганистана занимались Барбара Фостер, Карл Фридрих, Стивен Коллинс, Андрю Басс и др.

**Методология исследования.** В создании комплексного и полного анализа состояния трансформации нынешнего Афганистана, особенностей его политической системы и перспектив в рамках данной статьи помогли методологические подходы, такие как: исторический анализ

(изучение этапов политической трансформации политики, а также ее влияния на международные отношения); сравнительный анализ различных этапов трансформации, их целей, последствий и эффективности; мультидисциплинарный подход, чтобы рассмотреть трансформацию Афганистана с различных точек зрения, таких как экономика, политика, социология, культура и др.; геополитический анализ, подразумевающий оценку геополитических последствий процессов трансформации политической системы Афганистана; прогностический анализ будущих тенденций в политике и их влияния на международные отношения и экономику.

**Анализ и результаты.** Этапы политической трансформации Афганистана

Провозглашение в 1973 г. Республики в Афганистане после государственного переворота стало началом целой череды трансформационных процессов, которые сопровождались длительным противостоянием внутренних политических сил, проявлявшимся в жестоких войнах и междоусобицах, процветанием наркопроизводства, разрушениями социальных ценностей, упадком экономики страны.

| | **Период политич. событий** | **Политическая трансформация** | **Основные предпосылки и последствия** |
|---|---|---|---|
| . | **1973 г.** | Первая республика и диктатура Дауда | Государственный переворот 17 июля 1973 г. Упразднение Монархии и провозглашение республики. Характеризуется крайней политической нестабильностью, попытки провести реформы и модернизировать страну. |
| . | **1978 г.** | Провозглашение Демократической республики Афганистан (ДРА). | Апрельская революция 1978 года. Приход к власти прокоммунистической Народно-демократической партии. Ввод в декабре 1979 г. советских войск. |
| . | **1979-1989 гг.** | Переименование в 1987г. в Республику Афганистан. | Радикальные реформы, секуляризация, массовые протесты, гражданская война, вывод советских войск; |
| . | **1989-1992 гг. -** | Гражданская война. | Государственный переворот в Кабуле, роспуск кабинета министров, возглавляемого Ф. Халекьяром. |
| . | **1992-1996 гг.** | Переименование в Исламское государство Афганистан. | Падение режима Наджибуллы, рождение движения Талибан. |
| . | **1996-2001 гг.** | Провозглашение государства Исламский Эмират Афганистан. | Первый приход к власти «Талибан» и их правление, полное игнорирование талибами международного права, установление законов шариата в самой строгой интерпретации. |
| . | **2001-2021 гг.** | Афганская война, приход к власти Талибан в 2021 г. | Начало операции «Несокрушимая свобода», вторжение США и союзников; падение режима талибов; начало формирования Временной администрации; длительная война и второй приход к власти Талибан в 2021 г. |

***Таблица 1.*** *Этапы политической трансформации в Афганистане, их предпосылки и последствия. Составлена автором.*

Насколько долгосрочным будет нынешний формат, ставший промежуточным логическим завершением многолетней борьбы движения Талибан и началом очередной трансформации власти в Афганистане, покажет время. Но к моменту прихода к власти Талибан во второй раз, летом 2021 года, Афганистан представлял из себя страну: самую бедную не только в Азии, но и во всем мире, пребывающую в условиях нищеты, где детская смертность находится на первом месте в мире, а средняя продолжительность жизни составляет всего 53 года. Более 22 млн из примерно 36 млн населения страны живет при острой нехватке продовольствия [1]; исключенную из международного разделения труда: её совокупный «легальный» экспорт едва превышает 700 млн долл. в год. Потребности во внешнем финансировании составляют от 1 до 2 млрд долл. в месяц или от 12 до 24 млрд долл. в год. Значительная часть валютных поступлений в страну складывается из доходов от экспорта наркотиков (до 2-3 млрд долл. в год) [2]; разрозненную этнически и раздираемую борьбой между различными политическими силами; где большая часть мужского населения жила и воспитывалась в условиях войны, что оказало большое влияние на формирование их мировоззрения и традиции, а женщины подвергались и подвергаются жесточайшей дискриминации; отвергающую какие-либо демократические ценности, полностью пренебрегающую международным правом и руководствующуюся законами шариата в самой строгой интерпретации.

**Позитивные прогнозы трансформации.** В связи с положительным подходом к афганскому кризису и надеждой на политическую трансформацию Афганистана в позитивном ключе имеет смысл обозначить некоторые альтернативные, оптимистические прогнозы развития событий как в самом Афганистане, так и вокруг него. Это:

- консолидация государственной власти в стране, установление политического контроля над всей территорией Афганистана, что полностью соответствует, как нам представляется, интересам талибов;

- глубокая внутренняя трансформация Талибана за счет четкого определения формы правления государства и организации государственной власти, а также формирования механизмов её осуществления, что обусловлено прежде всего достижением соизмеримого баланса между религиозными идеями и политическим прагматизмом;

- отказ от агрессивных намерений и экспансионистских планов в отношении других государств, о чем Талибан периодически декларируют в заявлениях, утверждая отсутствие каких-либо замыслов по расширению своих территорий и нападению на соседние государства;

- нейтрализация политических конкурентов, таких, как ИГИЛ, Аль-Каида и др. Действующей власти придется сделать сложный выбор между нелегким достижением признания легитимности правительства, становлением на путь интеграционного развития и полным отказом от своих сподвижников, которым организация обязана своей победой;

- нейтрализация внутренних миграционных процессов, для достижения которой страна должна встать на путь активного социально-экономического развития;

- значительные успехи в борьбе с незаконным оборотом наркотиков и др. Учитывая, что прибыль от продажи опиатов составляет от 2,5 до 3 млрд долл. США в год, а выращиванием опийного мака занимаются не менее 3 млн человек, задача не из легких, но безальтернативно обязательно осуществимых.

**Усилия Узбекистана в урегулировании афганского кризиса.** Узбекистан прилагает все усилия, направленные на стабилизацию ситуации в Афганистане и его становление на путь устойчивого долгосрочного социально-экономического развития. Так, для оказания помощи в достижении стабильности в стране, Узбекистан предпринял ряд таких мер, как: осуществление визитов и встреч на высшем и высоком уровнях; предоставление площадки для проведения переговоров в республике между представителями правительства Афганистана и движения «Талибан»; возвращение афганского правительства к переговорному процессу, прерванному в марте 2018 года (тогда переговоры шли между правительством ИРА и движением «Талибан»; оказание гуманитарной помощи; помощь в эвакуации афганских беженцев; создание Образовательного Центра для обучения афганцев в г. Термезе, в котором обучаются 130 афганских граждан и в ближайшее время запланировано их увеличение до 250 чел.;

создание Международного многофункционального транспортно-логистического хаба по оказанию гуманитарной помощи Афганистану и иным государствам; осуществление поставок электроэнергии в Афганистан, на основе ежегодно заключаемых прямых договоров, покрывая более 50% потребностей соседней страны и др.

**Роль международного и регионального сообществ в решении афганской проблемы.**

Как отмечают международные эксперты, «Только скоординированные и консолидированные усилия региональных и международных стран могут стать серьезным барьером на пути превращения Афганистана в источник перманентной угрозы для международного сообщества» [6].

В контексте такого целеполагания задачами международного сообщества, определяющими дальнейшее его участие в процессах становления и развития этой страны, представляются: 1) координация усилий международного сообщества в решении крупных региональных проблем безопасности на фоне афганского кризиса, создание широкой коалиции по взаимодействию с Афганистаном; 2) формирование общего позитивного видения и оптимистических сценариев перспектив будущего Афганистана как мотивирующего фактора для политических сил страны; 3) отказ от рассмотрения ситуации в Афганистане через призму геополитического противостояния ведущих держав, объявления экономической войны новому режиму, а также продолжение оказания гуманитарной помощи афганскому народу; 4) координация усилий для достижения перекрытия финансовых потоков, подпитывающих террористические ячейки, находящиеся как на территории Афганистана, так и за его пределами и др.

Однако помощь и поддержка международного и регионального сообществ ничего не будут значить без волевого решения афганского правительства стать частью международного сообщества и стремления афганского народа изменить ситуацию. В этом плане первоочередными задачами для Афганистана представляются, прежде всего, наличие политической воли для эффективного сосуществования с международным сообществом, принятия и укрепления международных стандартов таких этических норм, как терпимость, равноправие, разнообразие, а также для выступления элементарной единицей международной правовой системы; восстановление в самые кратчайшие сроки институтов власти для эффективного осуществления государственных функций; формирование наиважнейшего для восстановления экономики и развития всех сфер жизнедеятельности государства - человеческого капитала, компонентами которого являются здоровье нации, его образование, кадровый потенциал и досуг; учитывая, что 70% населения Афганистана живет в сельской местности, важно обратить особое внимание на аграрную политику, направленную на динамичное и эффективное развитие сельскохозяйственного производства и других отраслей агробизнеса, и ее основной инструмент – сельскохозяйственные субсидии.

**Выводы и предложения.** Таким образом, на пути к установлению мира и стабильности в Афганистане перед регионом в целом и перед каждой республикой ЦА в отдельности стоят сложные, требующие скорейшего урегулирования проблемы, от решения которых зависит дальнейшее устойчивое региональное развитие. На кону прежде всего безопасность и национальный суверенитет каждой из стран региона, что требует: а) сближения позиций, координации действий, направленных одновременно и на обеспечение собственной безопасности государств, и на оказание ожидаемой помощи; б) разработки предложений действенных путей выхода Афганистана из многолетнего кризиса и его интеграции в региональные и глобальные процессы развития; в) содействия социально-экономическому росту афганского общества.

Весьма важно, что благоприятными последствиями политической трансформации Афганистана в позитивном ключе могут стать: резкое снижение уровня миграционных процессов, способных спровоцировать новые политические катаклизмы; регулирование вопросов региональной безопасности, достижение общего сбалансированного регионального развития как важного приоритета национальной экономики каждой страны; диверсификация внешнеторговых, экономических и политических связей центральноазиатских стран с обширным регионом Южной Азии; улучшение взаимопонимания между Индией и Пакистаном, характеризующихся рассмотрением отношений с Кабулом через призму индийско-пакистанского противостояния; более активное участие в развитии Афганистана арабских стран Персидского залива, которые одними из первых оказали гуманитарную помощь афганскому народу и заявили, что продолжают выступать на стороне афганского народа и продолжат оказание гуманитарной помощи Афганистану; обретение беспрецедентного опыта для дальнейшего использования применительно к другим кризисным ситуациям.

**ЛИТЕРАТУРА**

1. В ООН заявили, что более половины населения Афганистана нуждается в гумпомощи// Эл. ресурс: https://kun.uz/ru/news/2022/08/30/v-oon-zayavili-chto-boleye-poloviny-naseleniya-afganistana-nujdayetsya-v-gumpomoshchi
2. Кортунов А. Решение проблемы Афганистана: необходимые условия и международные последствия // Эл. ресурс: https://russiancouncil.ru/papers/Afghanistan-Report76.pdf.
3. Афганский кризис// Эл. ресурс: https://vlast.kz/politika/50518-afganskij-krizis.html.
4. «Военные Британии предложили дать талибам шанс управлять Афганистаном» // Эл. ресурс: https://www.rbc.ru/politics/ 18/08/2021/ 611cd8849a79470e49f034a0.
5. Как выстраивается политика Узбекистана в новых реалиях Афганистана? // Эл. ресурс: https://www.caa-network.org/archives/22144/kak-vystraivaetsya-politika-uzbekistana-v-novyh-realiyah-afganistana.
6. Венгерские эксперты: Евросоюз заинтересован в сотрудничестве с Узбекистаном на афганском направлении // Эл. ресурс: https://dunyo.info/ru/site/inner/vengerskie_eksperti_ evrosoyuz_zainteresovan_v_ sotrudnichestve_s_uzbekistanom_na_afganskom_napravlenii_-ZWi.

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
https://science.nuu.uz/
Social sciences

**UDK: 930.25**

***Rasuljon DUSCHANOV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.f.d.(PhD)*
*E-mail:rasuljonduschanov5@gmail.com*

*O‘zMU professori, t.f.n Z.Rahmonqulova taqrizi asosida*

## ARXIV HUJJATLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI

Annotatsiya

Arxiv, muzey va kutubxonada hujjatlarni raqamlashtirish hozirgi kunda davr talabi hisoblanishi bejiz emas, chunki raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshib bormoqda. Buning sababi har tomonlama ya’ni, arxiv hujjatini asrash va tadqiqotchi uchun vaqtni tejashda katta imkoniyat yaratiladi. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayonida xodimlarga belgilangan tartib qoidalar mavjud bo‘lib, ular “Axborot xavfsizligi” bo‘yicha yo‘riqnoma bilan to‘liq tanishib chiqishlari shart hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Axborot, sapol, sug‘urta, qog‘oz, noyob, qattiq disk, harorat, namlik, raqamlashtirish, skaner, planshet, katalog, tosh jismlar, qoyatosh, papirus, fotoalbom.

## ПОРЯДОК ОЦИФРОВКИ АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ

Аннотация

Недаром оцифровка документов в архиве, музее и библиотеке считается требованием времени, ведь потребность в оцифровке резко возрастает. Причина этого комплексная, то есть создание возможности для сохранения архивных документов и экономии времени исследователя. В процессе оцифровки архивных документов для сотрудников установлены регламенты, и им необходимо в полном объеме ознакомиться с инструкцией по «Информационной безопасности».

**Ключевые слова:** Информация, керамика, страховка, бумага, редкий, жесткий диск, температура, влажность, оцифровка, сканер, планшет, каталог, каменные предметы, наскальные рисунки, папирус, фотоальбом.

## PROCEDURE FOR DIGITIZING ARCHIVAL DOCUMENTS

Annotation

No wonder the digitization of documents in archives, museums and libraries is considered a requirement of the time, because the need for digitization is increasing dramatically. The reason for this is complex, that is, the creation of an opportunity to preserve archival documents and save the researcher's time. In the process of digitizing archival documents, regulations are established for employees, and they need to fully familiarize themselves with the instructions for "Information Security”.

**Key words:** Information, ceramics, insurance, paper, rare, hard disk, temperature, humidity, digitization, scanner, tablet, catalogue, stone objects, rock carvings, papyrus, photo album.

**Kirish**. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida arxiv ma’lumotlaridan foydalanish masofadan turib, aloqa tarmoqlari orqali arxivlardagi elektron kataloglar va arxiv hujjatlarining raqamli nusxalaridan ommaviy ravishda ishlatish bilan amalga oshirilmoqda. Yozib olish vositalari va axborot tashuvchilarning o‘zgarishi tufayli axborotni saqlash masalasi keskin tus olmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, papirus yoki pergamentdagi 1000 yilgacha, qog‘oz (jumladan, fotosuratlar ham) 300 yilgacha, magnit tasmasida – 50 yilgacha, kompakt-disklar va DVDda – 5-10 yilgacha, qattiq disklarda – 5-10 yilgacha saqlanishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ma’lumotlarni saqlashning maqbul yo‘li ularni muntazam ravishda yangi tashuvchilarga qayta ko‘chirib borish hisoblanadi.

Jahon globallashuv jarayonida raqamli arxivlar, kutubxonalar va muzeylarga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshib bormoqda. Jahon arxivlari tarixidan ma’lumki, qadimgi davrlarda hujjatlar sopol, yog‘och taxtachalarda, tosh jismlar, devorlar, qoyatoshlarda, papiruslarda, daraxt po‘stloqlarida, maxsus ishlov berilgan terilarga bitilgan. O‘zbekistonda arxivlarning paydo bo‘lishi bevosita uch ming yillik davlatchilik tarixi bilan bog‘liq hisoblanadi[1].

Keyingi davrlarda qog‘ozning ommaviylashishi va yozuvning takomillashuvi natijasida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga oid arxiv hujjatlarining son va hajm jihatdan keskin ortishi arxiv sohasida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Yangi va eng yangi davrda fan texnologiyaning taraqqiyoti natijasida kino-foto-fono, audiovizual va raqamli hujjat turlari ham paydo bo‘ldi.

- Mustaqillik yillarida raqamli arxivlarni yaratish borasida hukumat darajasida ko‘pgina qaror va farmoyishlar qabul qilindi[2]. Jumladan, “Arxivi ishi to‘g‘risi”dagi qonunga ham elektron hujjat to‘g‘risidagi tushunchalar kiritildi[3].
- Bugungi kunda arxivlarni raqamlashtirish va ularni saqlashning jahon tajribasida quyidagi umumiy talablar belgilab quyilgan:
- Barqaror elektr ta’minoti;
- Sug‘urta (rezerv) nusxa olish;
- Viruslardan himoyalash;
- Yordamchi dasturlar vositasida hujjatlarning profilaktika va diagnostikasini o‘tkazish[4].

O‘zbekiston Milliy arxivida hozirgi kunda axborot-texnologiyalarni joriy etish, qog‘oz asosidagi hujjatlarni raqamlashtirish ishlarini olib borish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Arxivda saqlanayotgan alohida qimmatli va

noyob 20 568 saqlov birligidagi yig‘majildlarning 1 322 479 ta kadr hujjati raqamlashtirilgan[5].

Arxivda hujjatlarni raqamlashtirish uchun mas’ul bo‘lgan har bir xodimga qat’iy talablar belgilab quyilgan. Shu jumladan, raqamlashtirish bo‘yicha autsorsing xizmat ko‘rsatuvchi yuridik subyekt vakili yoki vakillari ilk bora ishga kirishishdan oldin arxiv rahbari tomonidan tasdiqlangan “Axborot xavfsizligi” bo‘yicha yo‘riqnoma bilan to‘liq tanishib chiqishlari shart hisoblanadi.

Yo‘riqnoma bilan tanishib chiqqan har bir xodim belgilangan talablar bilan to‘liq tanishib chiqqanligini haqida qayd etish daftariga tasdiq imzosini qo‘yishi lozim.

Arxivda saqlanadigan alohida qimmatli hujjatni raqamlashtirishda ham o‘ziga xos talablar bo‘lib, bular quyidagilar:

Hujjatlar yig‘majildlari tarkibiga kirgan hamma hujjatlarni raqamlashtirish;

Bo‘sh, ma’lumot yozilmagan varaqlarni tushirib qoldirish;

Hujjatda ma’lumot ikki tomonlama berilgan bo‘lsa, oldi va orqa tomonlarini alohida raqamlashtirish;

Katta formatdagi hujjatlarni maxsus (katta o‘lchamli hujjatlarni raqamlashtirishga mo‘ljallanagan) skanerlarda raqamlashtirish;

Agar hujjat hajmiy o‘lchamlarga ega bo‘lsa (fotoalbom, rulon yoki o‘ram) unda uni tashqi ko‘rinishi va o‘lchamini ko‘rsatib turuvchi fotonusxa ham tayyorlash tavsiya etiladi;

Agar hujjat maxsus qoplam (konvert, papka, muqova)ga ega bo‘lsa ular ham raqamlashtiriladi.

Arxiv binosida ish olib borayotgan xodimlar axborotlar bilan ishlash jarayonida o‘zlarining shaxsiy elektron axborot tashuvchi vositalaridan (flesh xotira, qattiq disk, SD-R yoki DVD-R lazer disklari) foydalanishlari ta’qiqlanadi. Zarur hollarda faqat arxivning xatlovida turgan axborot tashish vositalardan foydalanish mumkin.

Arxivda raqamlashtirish jarayonlari axborot xavfsizligining tashkiliy, texnikaviy va dasturiy talablariga rioya etgan holda tashkillashtirilishi lozim.

Raqamlashtirish ishlarini tashkil etish, tavsiya etilgan usullardan samarali foydalanish, raqamlashtirilayotgan hujjatlarning butligi va xavfsizligini ta’minlash, raqamlashtirish natijasida yaratilgan fayllarning axborot xavfsizligi va axborotning himoyasi bo‘yicha belgilangan talablar doirasida bo‘lishini ta’minlashda asosiy javobgarlik arxiv rahbariga yuklatilgan.

Arxiv hujjatlaridan raqamli formatdagi nusxalaridan foydalanishning afzallik tomonlari:

- Hujjatning asl nusxasi o‘rniga raqamli nusxasidan foydalanish imkoniyatini yaratish;

- Sifatni yo‘qotmagan holda hujjatdan ko‘p marotaba nusxa olish imkoniyati;

- Dasturiy ta’minot orqali raqamlashtirilgan hujjatning ko‘rinishini ham qisman, ham to‘liq tiklash imkoniyati;

- Axborot-qidiruv tizimlari yordamida hujjatning raqamli nusxasidan tezkor foydalanishni ta’minlash;

- Hujjatning raqamli nusxasidan, shu jumladan internet tarmog‘i orqali ko‘p foydalanuvchilar tomonidan bir vaqtda foydalanish imkoniyatini ta’minlash.

Bundan maqsad birinchidan – hujjatning asl nushasiga ziyon yetkazmay kelajak avlodga yetkazish, ikkinchidan – tadqiqotchi uchun vaqtni tejash, uchinchidan – arxiv xodimlari uchun yengillik yaratish hisoblanadi.

Qog‘oz ko‘rinishdagi arxiv hujjatlarini raqamlashtirish uchun uskunalar.

A3 va undan kichikroq formatdagi muqovalangan arxiv hujjatlari, so‘tish mumkin bo‘lmagan hujjatlarni raqamlashtirish uchun faqat masofada raqamlash imkonini beruvchi maxsus kitob skanerlaridan foydalanish kerak.

A2–A0 formatidagi hujjatlarni raqamlashtirish uchun yuqori aniqlikdagi raqamli kamera yoki maxsus skanerlar talab qilinadi. Biroq, har qanday holatda kamera yordamida yuqori tasvir sifatiga erishish juda qiyin, shuning uchun keng formatli skaner eng yaxshi yechim hisoblanadi.

Ketma-ket kiritish skanerlar muqovalanmagan yoki so‘tilgan hujjatlarni raqamlashtirish uchun ishlatiladi. Bunday skanerlarning o‘ziga xos xususiyati hujjatlarni ko‘chirish uchun aylanma mexanizmdan foydalanishidir. Ushbu skanerlar turli formatdagi hujjatlarni raqamlashtirishga imkon beradi, yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, daqiqasiga 10 dan 180 ta yoki undan ko‘p sahifani raqamlashtiradi.

Agarda jismonan zaiflashgan-zararlangan qog‘ozli hujjatlarni raqamlashtirish uchun kitob skaneridan foydalanish mumkin, yoki bunday hujjatlar kam miqdorda bo‘lsa, mos formatdagi planshet skanerdan va raqamli kameradan foydalanish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar qattiq diskni («vinchester») operativ ma’lumotlarning deyarli samarali saqlanishini ta’minlaydi. Katta hajmdagi (hozirgi vaqtda 80-120 GB hajmli qattiq disklar davlat arxivlarida keng tarqalgan, bu o‘n minglab raqamli tasvirlarni joylashtirish imkonini beradi), axborotdan tezkor foydalanish va uni o‘qishning yuqori tezligi qattiq disklarning mutlaq afzalliklaridir. Biroq, qattiq diskning ishdan chiqishi unda qayd etilgan barcha ma’lumotlarning yo‘qolishiga olib keladi, shuning uchun ishonchlilikni oshiruvchi qo‘shimcha texnik chora-tadbirlar qo‘llanilishi kerak: ma’lumotlarni almashtiriladigan mashina tashuvchilarda takrorlash, zaxiralash.

Raqamli nusxalarni uzoq muddatli saqlash uchun almashtiriladigan mashina tashuvchilar maqbuldir, ularning qattiq disklardan afzalligi shundaki, o‘qish/yozish qurilmasining ishdan chiqishi ma’lumotlarning yo‘qolishiga olib kelmaydi, chunki ular boshqa har qanday qurilmada o‘qilishi mumkin.

Raqamlashtirilgan axborotni xavfsiz saqlash turli xildagi uch va undan ortiq tashuvchilarda hujjatlarning raqamli nusxalarini yozish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Arxiv hujjatlarining raqamli nusxalarini yaratish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- raqamlashtirish uchun hujjatlarni tayyorlash (ajratish, saralash, tizimlashtirish/klassifikatsiyalash);

- Hujjatlarni raqamlashtirish;

- Kamchiliklar yo‘qligi va tegishli sifatni saqlab qolish uchun qilingan nusxalarni asl hujjat bilan solishtirish;

- Tasvirga ishlov berish;

- Hujjatlarning raqamli nusxalarini saqlash;

- Hujjatlarning raqamli nusxalari tavsifini qilish (bibliografiyasini to‘ldirish);

- Grafikli axborotlar massivlarini saqlashni tashkil etish.

Hujjatlarni raqamlashtirishga tayyorlash – taqdim etilgan hujjatning turi, formati va sifati bo‘yicha saralashni o‘z ichiga oladi; har bir turdagi skanerlash uskunalari uchun raqamlashtirish lozim bo‘lgan hujjatlar to‘plamini shakllantirish.

Hujjatlarni raqamlashtirishga tayyorlash hujjatni to‘g‘irlash, bukilgan chetlarni tekislash, changdan (yelim siniqlari), qo‘yilgan skrepkalar, qirqimlardan tozalash, chok iplarini hujjatning matni yoki tasviri iloji boricha ko‘rinadigan qilib to‘g‘irlashni o‘z ichiga olishi kerak.

Skanerlash uskunasi ma’lum shartlar majmuasiga (masalan, shtativ orqali raqamli kamera bilan suratga olishda) sozlashni talab qilgan hollarda hujjatlarni format va sifati bo‘yicha saralash talab qilinishi mumkin. Odatda, zamonaviy kitob skanerlari skanerlangan obyektning o‘lchamini avtomatik ravishda aniqlaydi va asl nusxaning rangi yoki kontrastiga qarab skanerlash rejimini o‘zgartiradi. Bunday hollarda hajmi va sifati bo‘yicha saralash talab qilinmaydi.

Ba’zi hujjatlar dastlab restavratsiyaga yuborilishi kerak va keyin raqamlashtiriladi. Hujjatni tayyorlash faqat restavratsiyalashning asosiy tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak, ya’ni asl nusxaning ko‘rinishi va mazmunini buzadigan har qanday o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Arxiv hujjatlarini raqamlashtirishdan tashqari uni saqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ularni saqlashda bo‘yicha belgilangan tartib qoidalar asosida amalga oshiriladi. Bunda kutubxona, arxiv hujjatlari saqlanadigan fondlarda 17-19°S o‘rtasidagi doimiy haroratni va havoning qiyosiy namligini 55% -65% gacha, oq - qora plyonkali materiallar uchun 15°S, namlik 40% - 55%, magnit tasmava disklaruchun harorat 15-20 °S, namlik 50% - 60% ushlab turish tavsiya etilgan. Bu shartlarni bajarilishi, asosan, isitkichlar va ventilyatsiya tizimining changga qarshi kurashishiga bog‘liqdir.

Havo harorati va namlik doimiy ravishda nazorat ostiga olingan bo‘lishi va qayd jurnaliga yozib borilishi zarur. Harorat va namlik tartibi maxsus nazorat - o‘lchov asboblari termometr va gidrometrlar yoki psixrometrlar yordamida o‘zgartirib boriladi. Mazkur asboblar isitish va ventilyatsiya tizimidan uzoqroqda, saqlovxonaga kirishda o‘rnatilishi muhim[6].

**Xulosa.** Arxiv hujjatlarini saqlash, jamlash, tartibga solish, foydalanish va raqamlashtirish jarayonlarida ishtirok etuvchi har bir xodim yoki vaqtincha jalb etilgan shaxslarning har biri o‘ziga yuklatilgan ishlar bo‘yicha javobgar etib belgilanadi. Shu o‘rnida aytish mumkinki, arxivlarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va hujjatlarni arxiv xodimlari hamda tadqiqotchilarga bir qator qulayliklar yaratadi. Arxivlarda hujjatlarni saqlashda joy muammosiga bir qator yechimlar topiladi. Shuningdek, elektron shakldagi hujjatdan va qidiruv tizimidan bir nechta tadqiqotchi bir vaqtning o‘zida foydalana olishi ham mumkin.

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston arxiv tizimi 100 yoshda. / Mas’ul muharrir. Yusupov U.M., –Toshkent: Navro‘z, 2019.
2. https://lex.uz/docs/1993490 Murojaat qilingan sana 20-mart 2023-yil.
3. https://lex.uz/docs/1645540 Murojaat qilingan sana 20-mart 2023-yil.
4. Arxivshunoslik. /Mas’ul muharrir. Saidboboyev Z.A.., –Toshkent: Turon-Iqbol. 2018.
5. Yusupov U., Aliyev A. O‘zbekiston arxivlari. –T.: Tasvir, 2021.
6. Рахимов М. Кутубхона ва архив фондларини зараркунандалардан сақлашнинг аҳамияти // INFOLIB 2019-йил № 4.71-б.